

UO‘K(UDC, УДК): 82–1/–9

**F.D. CHESTERFILDNING “O‘G‘LIMGA MAKTUBLAR” ASARIDA
GUMANISTIK TAMOYILLAR VA SHAXS KAMOLATI MASALALARI²⁷****Raximova Dilnoza Masharipovna***Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali**ingliz tili kafedrasi assistenti,**Urganch, O‘zbekiston**E-mail: rrakhimovadilnoza@gmail.com**ORCID ID: 000900209823807***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada XVIII asr ingliz adabiyotining yirik vakili Filipp Dormer Stenxop Chesterfildning jahon epistolyar merosida alohida o‘rin tutuvchi “O‘g‘limga maktublar” asari gumanistik g‘oyalar prizmasi orqali tadqiq etilgan. Tadqiqotda muallifning o‘z o‘g‘li Filipp Stenxopga yo‘llagan maktublarida aks etgan insonparvarlik, ma‘rifatparvarlik va axloqiy komillik tamoyillari tahlil qilinadi. Maqolada Chesterfildning gumanistik qarashlari shunchaki nazariy xulosa emas, balki shaxsning jamiyatda munosib o‘rin egallashi, odob–axloq normalarini egallashi va intellektual salohiyatini oshirishi bilan bog‘liq amaliy falsafa sifatida baholanadi.

Maqolada asarning pedagogik va ma‘rifiy ahamiyati ochib berilar ekan, undagi “ideal jentlmen” tushunchasining insoniy qadr–qimmat va o‘zaro hurmatga asoslangan jihatlariga urg‘u beriladi. Shuningdek, Chesterfild o‘gitlarining zamonaviy tarbiya tizimi va shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirishdagi dolzarbligi ilmiy asoslab berilgan. Olingan xulosalar asarning nafaqat adabiy–tarixiy hujjat, balki inson shaxsiyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan gumanistik kontsepsiya ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, Chesterfild maktublarida insonning to‘g‘ri va adolatli hayot kechirish, jamiyatda odobli va mas‘uliyatli shaxs bo‘lish, shuningdek, bilim olish va madaniy tajriba orttirish orqali shaxsni kamol topish muhimligi ta‘kidlanadi. Tadqiqot shuni ham ko‘rsatadiki, muallif o‘g‘liga yo‘llagan tavsiyalarida gumanistik qarashlarni, insoniy qadriyatlar va tarbiyaviy tamoyillarni badiiy ifoda vositalari orqali yetkazadi, bu esa asarning tarbiyaviy va ma‘rifiy ahamiyatini yanada oshiradi.

KALIT SO‘ZLAR

Gumanism, epistolyar janr, badiiylik mezonlari, axloq, tarbiya, Stenxop, “O‘g‘limga maktublar”, insonparvarlik.

Received: November 23, 2025**Accepted:** December 22, 2025**Available online:** February 25, 2026²⁷ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Raximova D. F.D. Chesterfildning “O‘g‘limga maktublar” asarida gumanistik tamoyillar va shaxs kamolati masalalari // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 383-392.

**HUMANISTIC PRINCIPLES AND ISSUES OF PERSONALITY
DEVELOPMENT IN F.D. CHESTERFIELD'S WORK
"LETTERS TO MY SON"**

Rakhimova Dilnoza Masharipovna

Assistant Lecturer,

Department of English Language

Urgench Branch of Tashkent Medical Academy,

Urgench, Uzbekistan

E-mail: rrakhimovadilnoza@gmail.com

ORCID ID: 0009-0020-9823-807X

ABSTRACT

This article examines "Letters to My Son," a work by Philip Dormer Stanhope Chesterfield, a prominent figure in 18th-century English literature, which holds a special place in world epistolary heritage, through the lens of humanistic ideas. The study analyzes the principles of humanism, enlightenment, and moral perfection reflected in the author's letters to his son Philip Stanhope. The article evaluates Chesterfield's humanistic views not as mere theoretical conclusions, but as practical philosophy related to an individual's proper place in society, mastery of ethical norms, and enhancement of intellectual potential.

While revealing the pedagogical and educational significance of the work, the article emphasizes aspects of the "ideal gentleman" concept based on human dignity and mutual respect. Additionally, the relevance of Chesterfield's teachings in shaping modern educational systems and interpersonal communication culture is scientifically substantiated. The conclusions confirm that the work is not only a literary-historical document but also a humanistic concept aimed at developing human personality. Specifically, Chesterfield's letters stress the importance of living a righteous and just life, being a well-mannered and responsible person in society, as well as personal growth through acquiring knowledge and cultural experience. The study also demonstrates that in his recommendations to his son, the author conveys humanistic views, human values, and educational principles through artistic means of expression, further enhancing the work's educational and enlightening significance.

KEY WORDS

Humanism, epistolary genre, artistic criteria, morality, education, Stanhope, "Letters to my Son", ethics.

**ГУМАНИСТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ И ВОПРОСЫ
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ
Ф.Д. ЧЕСТЕРФИЛДА “ПИСЬМА К СЫНУ”**

Рахимова Дилноза Машариповна
ассистент кафедры английского языка
Ургенчский филиал
Ташкентской медицинской академии,
Ургенч, Узбекистан
E-mail: rrakhimovadilnoza@gmail.com
ORCID ID: 0009-0020-9823-807X

АННОТАЦИЯ

В данной статье «Письма к сыну» Филиппа Дормера Стэнхопа Честерфилда, выдающегося представителя английской литературы XVIII века, занимающие особое место в мировом эпистолярном наследии, исследуются через призму гуманистических идей. В работе анализируются принципы гуманизма, просвещения и нравственного совершенства, сформулированные в письмах автора своему сыну Филиппу Стэнхопу, в свою очередь, гуманистические взгляды Честерфилда рассматриваются не просто как отвлеченные теоретические выводы, а как практическая философия, направленная на то, чтобы человек занял достойное место в обществе, овладел нормами этикета и повысил свой интеллектуальный потенциал.

Для раскрытия педагогического и просветительского значения произведения в статье делается акцент на составляющих понятия «идеальный джентльмен», в основе которого – идеи о человеческом достоинстве и взаимном уважении, а также научно обосновывается актуальность наставлений Честерфилда для формирования современной системы воспитания и культуры межличностного общения. Полученные выводы подтверждают, что произведение является не только литературно-историческим документом, но и источником гуманистической концепции, направленной на формирование личности человека. В частности, в письмах Честерфилда подчеркивается важность того, чтобы человек вел праведную и справедливую жизнь, был воспитанным и ответственным членом общества, а также развивался через получение знаний и приобретение культурного опыта. Исследование также показывает, что в своих рекомендациях сыну автор передает гуманистические взгляды, человеческие ценности и воспитательные принципы посредством художественных средств выразительности, что еще больше усиливает воспитательное и просветительское значение произведения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Гуманизм, эпистолярный жанр, художественные критерии, нравственность, воспитание, Стэнхоп, «Письма к сыну», этика.

KIRISH

Epistolyar janr jahon adabiyotining eng qadimiy va sarmazmun tarmoqlaridan biri boʻlib, shaxsiy kechinma, ichki ruhiy tajriba, pedagogik qarashlar, hayotiy kuzatishlar va axloqiy xulosalarni bevosita, samimiy shaklda ifodalash imkonini beradi. Mazkur janrning muhim vakillaridan biri sifatida Philip Dormer Stanhope, Chesterfield grafi, oʻz oʻgʻliga yozgan maktublari orqali 18–asr ingliz jamiyatining maʼnaviy–axloqiy qarashlarini badiiy–epistolyar ravishda aks ettirgan. Bu asar pedagogik qoʻllanma, axloqiy risola, shaxsiy kundalik va diplomatik maslahatlar uygʻunligidan tashkil topgan murakkab struktura boʻlishi bilan ham qimmatli.

Ushbu maqolaning maqsadi Stenxop maktublarida gumanistik gʻoyalarning ifodalanishi, epistolyar janrning oʻziga xos badiiy qurilmalari va tarbiyaviy tamoyillarining ilmiy–nazariy tahlilidir.

ASOSIY QISM

Adabiyotshunoslikda taʼkidlanishicha, badiiy ijodkorning mahorati uning individual badiiy olamini shakllantirish, tasvir vositalaridan mohirona foydalanish, kompozitsiyani puxta qurish, obrazlarni hayotiylik va tipiklik asosida yaratish kabi omillar orqali namoyon boʻladi. Yozuvchining badiiy mahoratini aniqlashda ilmiy adabiyotda keltiriladigan 10 mezon: gumanizm, estetik tuygʻu, hayotiy haqiqatga sodiqlik, mushohada chuqurligi, gʻoya mantiqi va fantaziya kengligi, umumlashtirish, badiiy detalning aniqligi, sujet va obrazlar tizimi, qahramonlar ichki dunyosining ochilishi, til boyligi ayni paytda Stenxopning epistolyar merosini ham tahlil qilish uchun asos boʻla oladi (Xalliyeva G. va boshqalar, 2025, 50–51).

Filip Dormer Stenxop – XVIII asr ingliz maʼrifatparvar adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri boʻlib, uning “Letters to my Son” (Oʻgʻlimga maktublar) asari nafaqat oʻgʻliga nasixat, balki shu davrning axloq, maʼnaviyat, tafakkur tarbiyasi, odob–axloq normalarini oʻzida mujassam etgan murakkab badiiy–falsafiy asardir.

Stenxop maktublarining umumiy ruhini belgilovchi asosiy gʻoya – insonparvarlik (gumanizm)dir. Bu gʻoya uning badiiy mahoratini belgilovchi

yetakchi mezon sifatida ham ko‘rinadi.

Stenxopning birinchi maktubi (1739–yil, 15–iyul)dayoq muallif insoniylikning eng tabiiy ko‘rinishi: mehr, g‘amxo‘rlik va ota–o‘g‘il mehrini alohida e‘tirof etadi. Uning: “Thank you for your concern for my health” (Chesterfield D. S., 1739) degan jumlasida oddiy minnatdorchilik bo‘lib tuyulsa–da, aslida insonning ruhiy ehtiyoji, mehrning qadri, bir–birini tushunish tuyg‘ularini ifoda etadi. Bu maktubda gumanizm mezoni ikkita qirra orqali ochiladi:

1. Shaxsning ruhiy ehtiyojlarini anglash;
2. O‘zaro g‘amxo‘rlikni insoniy fazilat sifatida talqin qilish.

Stenxopning badiiy mahorati shundaki, u o‘g‘liga yozayotgan maktubda shaxsiy munosabatlar orqali umumiy insoniy qadriyatlarni ochib beradi.

1742–yil 28–iyundagi maktubda Stenxop: “*To break your word is folly, dishonor, crime.*” – “*So‘zingdan qaytish – ahmoqlik, nomussizlik, jinoyat.*” (Chesterfield D. S., 1742) deya qat‘iy hukm chiqaradi. Bu jumla uning g‘oyaviy maqsadini ravshan ko‘rsatadi: halollik insoniylikning asosiy mezoni. Bu yerda hayotiy haqiqatga sodiqlik, g‘oya mantiqi, axloqiy yuksaklik kabi badiiy mezonlar namoyon bo‘ladi.

Muomala madaniyati ijtimoiy fazilat sifatida 1742–yil shanba kuni yozilgan maktubdagi mashhur fikr: “*Being well–mannered is the only thing that can make people like you at first sight*” – “*Odobli bo‘lish – odamlarning seni birinchi ko‘rishdayoq yoqtirib qolishiga sabab bo‘ladigan yagona narsadir*” (Chesterfield D. S., 1742). Bu fikrda Stenxop epistolyar nasihatni psixologik kuzatish bilan uyg‘unlashtiradi. Yozuvchi odob–axloqni tashqi qoidalar bilan cheklamaydi, balki insonning ichki madaniyatini xushmuomalalik, hurmat, e‘tibor, boshqalarning ruhiyati bilan hisoblashish deb talqin qiladi. Bunda chuqur mushohada, obrazning psixologik ochilishi, tilning emotsional boyligi kabi mezonlar kuzatiladi.

1746–yil 9–oktyabr maktubidagi mashhur metafora hayot yo‘l” konsepsiyasi asarning falsafiy asosini belgilaydi: “*Take care to keep that necessary voiture’ in perfect good repair*” – “*Kerakli asbob–uskunani yaxshilab ta’mir qo‘yishga*

harakat qiling.”(Chesterfield D. S., 1746)...” Bu yerda “arava / voiture” – obraz bo‘lib, insonning o‘z hayoti, o‘z qobiliyati, shaxsiy kamoloti timsoli sifatida ishlatilgan. Bu badiiy detalning aniqligi simvolik obraz va badiiy tafakkurning kengligi mezonlariga mos keladi.

Stenxopning pedagogik g‘oyasi quyidagicha talqin qilinadi:

- hayot yo‘li doimo ta‘mirtalab;
- odam o‘z ustida ishlashi shart;
- e‘tiborsizlik va dangasalik ma‘naviy tanazzulning boshlanishi.

1746–yil 9–dekabr maktubida: “*notwithstanding the pain it gave you.*” – “*Sizga bergan dardiga qaramay.*” (Chesterfield D. S., 1746) jumlasini Stenxopning o‘g‘liga bo‘lgan mehrini, uning kechinmalariga befarq emasligini ko‘rsatadi. Bu maktubda ruhiy holat tahlili, insonparvarlik, ota–o‘g‘il munosabatlari psixologiyasi kabi poetik jihatlar ko‘payadi.

Ustozni hurmat qilish ma‘rifatning asosi. 1739–yil dushanba kungi maktubdagi: “He well deserves to be treated with care and diligence.” – “*U g‘amxo‘rlik va e‘tibor bilan munosabatda bo‘linishga to‘la haqli.*” (Chesterfield D. S., 1739) jumlasini o‘quvchi uchun nafaqat tavsiya, balki ma‘naviy qoidaga aylangan. Bu maktubda Stenxop ustoz mehnatini qadrlash, bilim bilan tarbiya uyg‘unligi, ma‘rifatning jamiyatdagi o‘rni kabi gumanistik g‘oyalarni poetik shaklda izohlaydi.

1741–yil 25–iyuldagi maktubda yozuvchi jamiyatdagi muvaffaqiyat uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni e‘tibor, kuzatuvchanlik, halollik, e‘tibor berish ko‘nikmalarini sanab o‘tadi. Bu maktub Stenxopning psixologik kuzatuvchilik mahoratini ko‘rsatadi.

Estetik tuyg‘u va shaxsiy madaniyat 1741–yil 6–avgust maktubida Stenxop shunday deydi: “*I have seen many people with great abilities not well received in society*” – “*Men jamiyatda yaxshi qabul qilinmagan ko‘plab katta qobiliyatli odamlarni ko‘rganman.*” (Chesterfield D. S., 1741). Bu fikr jamiyatdagi ijtimoiy o‘rinni faqat bilim emas, balki muomala, odob, estetik qiyofa ham belgilashini ko‘rsatadi. Bu estetik tuyg‘u shakllanishi mezoniga to‘liq mos keladi.

Raqs, kiyinish, yurish–turish – estetik tarbiyaning badiiy talqini. Stenxop 1746–yil 9–oktabr maktubida shunday yozadi: “*Whatever is worth doing at all, is worth doing well*” – “*Umuman, nima qilish kerak bo‘lsa ham, yaxshi bajarish lozim.*” (Chesterfield D. S., 1746). Yozuvchi raqs, kiyim, o‘zini tutish, mayda odatlar – bularning barchasini insonning umumiy madaniy qiyofasiga daxldorligini ko‘rsatadi.

1739–yil 20–noyabr maktubida Rim tarixidagi ulug‘vorlik misollarini keltirar ekan, Stenxop: “*Greatness of soul*” ya’ni “qalb buyukligi” terminini ishlatadi. Bu atama gumanizmning eng yuksak nuqtasini bildiradi. U insonni fazilat bilan ulug‘laydi, buyuk siymolarga taqlid qilishga chaqiradi. Bu yerda umumlashtirish, tipiklashtirish, falsafiy mushohada mezonlari yaqqol ko‘rinadi.

Stenxop shunday deydi: “*Every man has his aspirations, his ambition*”— “*Har bir insonning o‘z intilishi, o‘z maqsadi bor.*” (Chesterfield D. S., 1739). Yozuvchi insondagi ambitsiyani yomon sifat deb emas, balki to‘g‘ri yo‘naltirilishi kerak bo‘lgan tabiiy quvvat sifatida talqin qiladi. Bu XVIII asr ma’rifatparvarlik falsafasi bilan uyg‘un g‘oyadir.

1746–yil 9–oktabr maktubida Stenxop o‘g‘li haqida shunday yozadi: “*I have discovered laziness, inattention, indifference*” – “*Men dangasalik – e’tiborsizlik va beparvolikka olib kelishini anglab yetdim.*” (Chesterfield D. S., 1746). Bu maktubda psixologik tahlil, badiiy obraz, murakkab ruhiy jarayonlarning ochilishi kabi poetik usullar qo‘llanadi. Uning tanbehi ham gumanistik tanqid yoki jazolash emas, balki tarbiya vositasidir.

Stenxop epistolyar merosining poetik mohiyati Stenxopning “O‘g‘limga maktublar” asari gumanizmning eng to‘liq adabiy na’munalaridan biridir. Asarda shaxsga hurmat, jamiyatga moslashuv, axloqiy tarbiya, estetik tafakkur, ma’naviy poklik, ilm va ustozga hurmat, shaxsiy taraqqiyot, mehr va insoniylik o‘zaro uyg‘un badiiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu maktublar XVIII asr ingliz epistolyar nasrining eng yetuk na’munasidir va Stenxopning badiiy mahorati yuqorida sanab o‘tilgan 10 mezonning barchasi bilan tasdiqlanadi.

XULOSA

Chesterfield Stenxopning “O‘g‘limga maktublar” asari XVIII asr ingliz epistolyar nasrining eng yuqori darajadagi na‘munalaridan biri bo‘lib, uning asosiy badiiy g‘oyasi – gumanizm. Asarda inson qadr–qimmat, axloqiy yuksaklik, mehr–shafqat, bilim va tarbiya, shaxsiy va ijtimoiy mas‘uliyat masalalari markaziy o‘rinda turadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, Stenxopning epistolyar merosida gumanizm bir necha asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Insonparvarlik va mehr–shafqat. O‘g‘liga yozilgan maktublarda muallif inson tabiatidagi ezgulikni qadrlaydi va har bir shaxsning erkinlik, adolat va farovonlikka intilishini ta’kidlaydi.
2. Axloqiy tarbiya. Stenxop jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun halollik, sodiqlik, e’tibor, xushmuomalalik va ijtimoiy odob–axloqning ahamiyatini yoritadi.
3. Shaxsiy kamolot va ma’naviy yetuklik. Yozuvchi o‘g‘liga hayotning nozik jihatlari, dangasalik va e’tiborsizlikning oqibatlarini haqida ogohlantiradi, shaxsiy tarbiya va faoliyatning muhimligini ko‘rsatadi.
4. Estetik tafakkur va badiiy obrazlar. Maktublarda o‘g‘liga yo‘llangan maslahatlar orqali estetik tuyg‘u, muomala madaniyati, til boyligi va badiiy detallarning ahamiyati poetik shaklda ochiladi.
5. Ijtimoiy gumanizm va boshqalarga hurmat. Stenxop insonlarni qadrlash, ularning shaxsiy fazilatlarini e’tirof etish, shuningdek, boshqalarning xato va kamchiliklariga nisbatan samimiy yondashish zarurligini o‘rgatadi.

Shu bilan birga, Stenxopning epistolyar uslubi nafaqat tarbiyaviy va gumanistik maqsadlarni amalga oshiradi, balki badiiy mahoratning barcha mezonlarini sujet qurilishi, obrazlar tizimi, psixologik mushohada, tilning boyligi va rang–barangligini o‘zida mujassamlashtiradi. Xulosa qilib aytganda, “O‘g‘limga maktublar” asari insonni markazga qo‘ygan, uning ruhiy va ma’naviy olamini boyitishga qaratilgan gumanistik badiiy merosdir. Bu asar nafaqat o‘g‘il uchun ota tomonidan yozilgan nasihat, balki jamiyatning axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarini, shuningdek, insonning shaxsiy kamoloti va ma’naviy yetukligini targ‘ib qiluvchi muhim epistolyar manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Честерфилд, Филип Дормер Стэнхоп. Letters to His Son. – Project Gutenberg, 1766. –71. Мавжуд: <https://www.gutenberg.org/ebooks/3360>
2. Честерфилд, Филип Дормер Стэнхоп. Letters to His Son. – Project Gutenberg, 1752. Мавжуд: <https://www.gutenberg.org/ebooks/3356>
3. EMCO (Elizabeth Montagu Correspondence Online). Letters Written by the Late Right Honourable Philip Dormer Stanhope, Earl of Chesterfield, to his Son. – Swansea University. Мавжуд:<https://emco.swansea.ac.uk/emco/work/134>.
4. EBSCO Research Starters. “Letters to His Son by Lord Chesterfield.” Мавжуд:<https://www.ebsco.com/research-starters/literature-and-writing/letters-his-son-lord-chesterfield>.
5. Bartleby.com. “§ 8. Chesterfield’s Letters.” Мавжуд: <https://www.bartleby.com/lit-hub/volume-xiv-english-the-victorian-age-part-two-the-nineteenth-century-iii/8-chesterfields-letters/>
6. Library of Literary Criticism. “Philip Stanhope, 4th Earl of Chesterfield (1694-1773).” Мавжуд:https://www.wehd.com/litcrit/Philip_Stanhope_Earl_of_Chesterfield.
7. Notes. “Letters to His Son Summary.” Мавжуд: <https://www.enotes.com/topics/letters-his-son>
8. Шарипова, С.С., Чабборов, Б.А., Истамова, Ш.Р. “Адабий асарлардаги гуманистик ғоялар.” Таълимда Рақамли Технологиялар, 2025. Мавжуд: <https://scientific-jl.com/trt/article/view/10366>
9. Original Sources.com. “Letters to His Son on the Art of Becoming a Man of the World and a Gentleman, 1749.” Мавжуд: <https://www.originalsources.com/Browse.aspx?browseid=16158>
10. Goodreads. Letters Written by Lord Chesterfield to His Son. Мавжуд: <https://www.goodreads.com/book/show/703538>.
11. Xalliyeva G., Jo‘raqulov U., Qosimov A. Qiyosiy adabiyotshunoslik Darslik. – Toshkent: Best-publish nashriyoti, 2025. – B. 50–51.

REFERENCES

1. Chesterfield, Philip Dormer Stanhope. (1766). Letters to His Son. Project Gutenberg. Available at: <https://www.gutenberg.org/ebooks/3360>
2. Chesterfield, Philip Dormer Stanhope. (1752). Letters to His Son. Project Gutenberg. Available at: <https://www.gutenberg.org/ebooks/3356>
3. EMCO (Elizabeth Montagu Correspondence Online). Letters Written by the Late Right Honourable Philip Dormer Stanhope, Earl of Chesterfield, to his Son. Swansea University. Available at: <https://emco.swansea.ac.uk/emco/work/134/>
4. EBSCO Research Starters. "Letters to His Son by Lord Chesterfield." Available at: <https://www.ebsco.com/research-starters/literature-and-writing/letters-his-son-lord-chesterfield>
5. Bartleby.com. "§ 8. Chesterfield's Letters." Available at: <https://www.bartleby.com/lit-hub/volume-xiv-english-the-victorian-age-part-two-the-nineteenth-century-iii/8-chesterfields-letters/>
6. Library of Literary Criticism. "Philip Stanhope, 4th Earl of Chesterfield (1694-1773)." Available at: https://www.wehd.com/litcrit/Philip_Stanhope_Earl_of_Chesterfield.html
7. eNotes. "Letters to His Son Summary." Available at: <https://www.enotes.com/topics/letters-his-son>
8. Sharipova, S.S., Jabborov, B.A., Istamova, Sh.R. (2025). Humanistic Ideas in Literary Works. Digital Technologies in Education, Available at: <https://scientific-jl.com/trt/article/view/10366>
9. Original Sources. com. "Letters to His Son on the Art of Becoming a Man of the World and a Gentleman, 1749." Available at: <https://www.originalsources.com/Browse.aspx?browseid=16158>
10. Goodreads. Letters Written by Lord Chesterfield to His Son. Available at: <https://www.goodreads.com/book/show/703538>.
11. Xalliyeva G., Jo'raqulov U., Qosimov A. (2025). Comparative Literary Studies. Tashkent: Best-publish Publishing House, P. 50–51.